

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93


14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Masharipov Baxtiyar,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Sotsiologiya kafedrası tadqiqotchisi
e-mail: brmasharipov@gmail.com

SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800164>

ANNOTATSIYA

Maqolada shahar infratuzilmasi ilmiy kategoriya sifatida o‘rganilgan. Shahar infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi, turlari tavsiflangan. Shahar aholisi kundalik hayoti sifatini oshirishda ijtimoiy infratuzilmaning funksional ahamiyati ochib berilgan. Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va uni rivojlantirish mexanizmlari muammosi sotsiologik tadqiqotlar orqali o‘rganilmoqda. Mamlakat rivojida shaharlarning ijtimoiy holati va unda mavjud infratuzilmalar faoliyati samaradorligi muhim ahamiyatga ega, chunki, shaharlarning rivojlanishi yoki taraqqiyotdan ortda qolishi bevosita mamlakat rivojiga ta‘sir ko‘rsatadi. Kichik shaharlar qishloq va katta shaharni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu maqolada ko‘tarilayotgan muammo dolzarblik kasb etadi. Dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida yirik yoki katta shaharlarga nisbatan kichik shaharlar sonining ko‘pligi va ularda mavjud muammolarning o‘xshashligi ushbu mavzuni empirik sotsiologik tadqiqotlar orqali o‘rganishni va ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, shahar infratuzilmasi, innovatsiya, ijtimoiy infratuzilma, turmush darajasi va sifati, kichik shahar, jamiyat, migratsiya, urbanizatsiya, industrial, stratifikatsiya, mobillik.

Машарипов Бахтияр,
Национальный университет Узбекистана
исследователь кафедры социологии
e-mail: brmasharipov@gmail.com

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ГОРОДСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается городская инфраструктура как научная категория. Описаны структурная структура и виды городской инфраструктуры. Выявлена функциональная значимость социальной инфраструктуры в повышении качества повседневной жизни жителей города. В условиях современного Узбекистана проблема управления социальной инфраструктурой городов и механизмы ее развития изучаются посредством социологических исследований. В развитии страны важное значение имеют социальное состояние городов и эффективность существующей инфраструктуры, поскольку развитие или отставание развития

городов напрямую влияет на развитие страны. Маленькие города действуют как мост, соединяющий сельскую местность и большой город. С этой точки зрения проблема, поднятая в данной статье, становится актуальной. Практически во всех странах мира большое количество малых городов по сравнению с большими или большими городами и схожесть существующих в них проблем требуют изучения этой темы посредством эмпирических социологических исследований и глубокого научного анализа.

Ключевые слова: инфраструктура, городская инфраструктура, инновации, социальная инфраструктура, уровень и качество жизни, малый город, общество, миграция, урбанизация, индустриализация, стратификация, мобильность.

Masharipov Bakhtiyar,
National University of Uzbekistan
researcher at the Department of Sociology
e-mail: brmasharipov@gmail.com

FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF URBAN INFRASTRUCTURE

ABSTRACT

The article examines urban infrastructure as a scientific category. The structural structure and types of urban infrastructure are described. The functional significance of social infrastructure in improving the quality of daily life of city residents has been revealed. In the conditions of modern Uzbekistan, the problem of managing the social infrastructure of cities and the mechanisms of its development are studied through sociological research. In the development of a country, the social condition of cities and the efficiency of existing infrastructure are important, since the development or lag in the development of cities directly affects the development of the country. Small towns act as a bridge connecting the countryside and the big city. From this point of view, the problem raised in this article becomes relevant. In almost all countries of the world, the large number of small towns compared to cities or towns and the similarity of problems existing in them require the study of this topic through empirical sociological research and in-depth scientific analysis.

Keywords: infrastructure, urban infrastructure, innovation, social infrastructure, level and quality of life, small town, society, migration, urbanization, industrialization, stratification, mobility.

KIRISH

Shaharsozlikning rivojlanishi uning infratuzilmasini samarali shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Rivojlangan infratuzilma bois shahar aholisi kundalik hayotida qulaylik va sifat oshib boradi. Infratuzilma (lot. infra-“quyida”, “tagida”, structure – “qurilma”, “joylashgan”) – tizim faoliyatini ta'minlaydigan o'zaro aloqadorlikdagi xizmat ko'rsatuvchi tuzilma yoki obyektlarning majmui. Ingliz tilida infratuzilma atamasi XX-asrning birinchi choragida iste'molga kiritilgan bo'lib, ushbu tushuncha dastlab harbiy kuchlarning harakatlanishini ta'minlovchi qurilmalar majmuini anglatgan [1]. Shahar infratuzilmasi – uning hududida istiqomat qiluvchi aholi manfaatlarini kafolatlovchi va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini samarali ta'minlovchi injenerlik, yo'l-transport, ijtimoiy, moliyaviy va boshqa aloqa tizimlari yig'indisidan shakllanadi.

Shahar infratuzilmasi bir tomondan, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan shartlansa, ikkinchi tomonda insonlar tomonidan yaratilgan sun'iy qurilmalardan hosil bo'ladi. Shahar infratuzilmasi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosida yotuvchi bosh omillardan biri sanaladi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab shahar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari ilmiy doiralarda keng munozaralarga sabab bo'ldi. Xususan, D.Aschauer shahar infratuzilmasini rivoji uchun kiritilgan sarmoya iqtisodiyot tarmoqlarini ko'tarilishiga olib kelishini aniqladi [2].

METODOLOGIY

Shaharlarning turar-joy muhitini shakllantirish, infratuzilmalar va kommunikatsiya tarmoqlarini faoliyatini zamonaviylashtirish hamda modernizatsiya qilish mamlakatdagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan tavsiflanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ana

shunday o'zgarishlar ushbu jarayonning yo'nalishi, xususiyatlarini belgilab berdi. Mamlakatni boshqarishning eski sotsialistik mexanizmlari bekor qilindi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi aholi punktlarining rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatdi. Har xil turdagi aholi punktlarining, shu jumladan kichik shaharlarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganish zarurati tug'ildi. Ushbu toifadagi shahar aholi punktlarini rivojlantirish masalalari O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yangi uy-joy qurilishi va mavjud turar-joy qurilishini rekonstruksiya qilish iqtisodiy islohotlar sharoitida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi [3] Farmonining 34-maqsadi "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish"ga bag'ishlangan. Bunda 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish, Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish, shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi "Shaharlar qulayligi" indeksini joriy etish, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va "Aqlli shahar" konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ma'lumki, kichik shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi mintaqaviy sharoitlar, shuningdek rejalashtirish xususiyatini belgilaydigan ijtimoiy jarayonlar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda Respublikamiz kichik shaharlarining iqtisodiy jihatdan rivojlanishi va ijtimoiy holatining yaxshilanishini sotsiologik tadqiqotlar orqali o'rganish zaruriyati mavjud.

ASOSIY QISM

Infratuzilma shaharda hayotiy faoliyat rang-barangligini ta'minlaydi. Bunda innovatsion iqtisodiyot rivojlanadi, ishlab chiqarish samaradorligi oshib boradi, shaharning ilmiy-texnik tuzilmalari, xususan, texnomarkazlar, texnoparklar, innovatsion markazlar kabi zamonaviy taraqqiyotga xos ilg'or texnologiyalar taraqqiy etadi. T.Brayt shahar infratuzilmasida innovatsion tendensiyalarni o'rganib, ilm-fan, texnika, iqtisodiyot, tadbirkorlik va boshqaruv yutuqlarini birlashtirishda yagona bo'lgan jarayon, sifatida talqinlaydi [4].

Innovatsion jarayonda jamiyatning istisnosiz barcha qatlamlarining ertangi kunida asqotadigan bilimlar jamuljam bo'lgan. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki shahar infratuzilmasini innovatsion rivojlanish inson manfaatlarini, ehtiyojlarini to'laqonli qoniqtiradigan faoliyatning barcha tarmoqlarini qamrab olgan. Innovatsion jarayonlarning bosh xususiyati – innovatsiyalarning albatta yakunlangan xususiyat kasb etishi, natijadorlikka yo'naltirilganligi, amaliyotda tadbiriq etilganligidir. Ushbu mazmunda shaharning ijtimoiy infratuzilmasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy infrastruktura – aholining meyordagi turmush tarzini funksional ta'minlovchi tarmoqlar va korxonalar yig'indisidir. Bunga, turarjoy, uning qurilishi, ijtimoiy-madaniy ahamiyatli obyektlar, uy-joy-kommunal xo'jaligining barcha sohalari, sog'liqni saqlash, ta'lim, maktabgacha tarbiya muassasalari, dam olish va hordiq bilan bog'liq tashkilotlar va muassasalar, chakana savdo, jamoatchilik ovqatlanishi xizmat sohasi, sport-sog'lomlashtirish muassasalari, yo'lovchi transporti va aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa, huquqiy, moliyaviy-kreditlash xizmatini ko'rsatuvchi muassasalar tizimi (yuridik maslahat, notarius xizmati, jamg'arma kassalari, banklar va h.k.) kiradi.

- 1) Ijtimoiy infratuzilma omillari:
- 2) Iste'molchilik – bu bosh omil sanaladi (aholining joylashishi);
- 3) Tabiiy-zahirali omil – suv havzalari, o'rmonlar, tog'lar bilan bog'liq);
- 4) "Fanga yo'naltirilgan" omil – ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta'lim (universitet, institut darajasidagi);
- 5) Transport omili. Avvalombor shuni alohida ta'kidlash shartki ijtimoiy infratuzilmaga aniqlik kiritishda uni tukumlashning nisbatan keng tarqalagan shaklidan biri bu iqtisodiy infratuzilma bo'lib, u ikkiga bo'linadi, ya'ni, ishlab chiqarish infratuzilmasi, noishlab chiqarish infratuzilmasi, ya'ni sotsial [5].

Ijtimoiy infratuzilma bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq tarmoq va tarmoq osti bo'lib, aholining mehnat va ijtimoiy faoliyati, madaniy, maishiy, ijtimoiy va shaxslararo munosabatlaridagi faoliyatida shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan. O'z o'rnida sotsial infratuzilma quyidagi turlarga bo'linadi [6]:

Ijtimoiy-iqtisodiy – shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat);

Maishiy – aholining hayotiy faoliyati uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratadi (chakana savdo, kommunal xo'jaligi, uy-joy fondi va h.k.) [7].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shahar infratuzilmasi kundalik qulaylik yaratish bilan cheklanmaydi. U kambag'allikni qisqartirish kabi muhim masalalarda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. infratuzilma bois ishlab chiqarish o'sadi, aholi turmush sifati oshib boradi. Rivojlangan infratuzilma bois birgina Hindistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 7% o'sdi. Lotin Amerikasida elektr tarmoqlarini rivojlanishi ishlab chiqarish korxonalarining 86% ga ko'payishiga sabab bo'ldi. Shimoliy Afrikada esa tibbiy xizmatdan foydalanuvchilar soni 2 marotaba o'sdi [8].

Shahar quyidagi infratuzilma obyektlari yig'indisidan iborat bo'lsagina zamonaviy talablarga muvofiq rivojlanishi mumkin, bular: ishlab chiqarish infratuzilmasi; ijtimoiy infratuzilma; transport infratuzilmasi; injenerlik infratuzilmasi; informatsion infratuzilma; harbiy infratuzilma; bozor infratuzilmasi; innovatsion infratuzilma; urizm infratuzilmasi; IT-infratuzilma va hokazo.

Shahar infratuzilmasining har qanday shakli va turi aholi turmush sifati va darajasini oshirishga xizmat qiladi. Oddiy qilib aytganda, infratuzilma kishilar kundalik hayotini yanada qulay va shinam shart-sharoitlar bilan ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, birinchidan, ishchi kuchi sifatini yuqori intellek, mustahkam sog'liq, mehnat motivatsiyasini o'zgarishi hisobiga keskin oshishini talab etdi. Bu o'z o'rnida shahar infratuzilmasining turli sohalari rivojiga turtki berdi.

Ikkinchidan, shahar infratuzilmasi sohalari va tarmoqlarida sifat jihatidan yangilangan moddiy-texnik baza yaratildi.

Uchinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot ishchi kuchining moddiy ishlab chiqarish sohasidan xizmat ko'rsatish, jumladan shahar infratuzilmasi sohasiga qayta taqsimlanishiga olib keldi. Shu tariqa shahar infratuzilma oyektlarining rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishi, aholiga undan foydalanishda teng imkoniyatlarni yaratilganligi mamlakat aholisining asosiy qismi turmush darajasining ko'tarilishi va sifatini oshib borishida asosiy shartlardan sanaladi.

XX-asrning oxiriga kelib aholisi ko'p hamda ancha kosmopolitik hisoblanadigan va o'zlari ham shu shaharning bir qismini tashkil etgan milliy jamiyatlarning boshqa davlatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir qancha yirik shaharlarni kichik shaharchalar va mahalliy markazlar bilan bir-biridan ajratib farqlashni boshladilar. Katta shaharlarning o'sishi aholining o'sishi, shuningdek, fermerlardan, qishloqlardan va kichik shaharlardan aholi migratsiyasi-ya'ni ko'chish natijasi bo'ldi.

Masalan, 1830-yilga qadar deyarli hech kim yashamagan hududda 1900-yilga kelib 2 million kishidan ko'proq aholisi bo'lgan Chikago bunyod etilgan. Fikrimizcha, bugun insonlar o'z harakatlarini sabablari va oqibatlarini haqida fikr yuritish imkonini beruvchi ma'lumotlarga egadir. Jamiyatda yashovchi insonlar biografik rivoyatlar, ijtimoiy rollar va turmush tarzi to'plamini yaratmoqda hamda shu bilan birga ushbu hayotiy to'plamlarni tahrirleydilar. Ammo tanlovlarning turlari ko'payishi erkinlikni yanada ko'proq his qilishga sabab bo'ladi. Jamiyat a'zolarining bunday ijtimoiy rolni taqdim etadigan jamiyatlardan farqli o'laroq, xar bir shaxs o'z sotsial qiyofasini yaratadi. Shaharlarning o'ziga xos hayot tarzi shaxs ijtimoiy qiyofasi shakllanishida har doim etalon vazifasini o'tagan.

Demak, hududiy doiradagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini bilishning o'zi shahardagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish amaliyoti uchun kamlik qiladi. Aynan shu sababli ushbu qonuniyatlarni kichik shaharlar ijtimoiy amaliyotida amalga oshirishda o'ziga xos mexanizmini aniqlash, bunda mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish, o'ziga xos va maqsadli reja asosida boshqarishni hal qiladigan vazifalarga muvofiqligini baholash muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda kichik shaharlarning miqdoriy parametrlarining rejalashtirish va uni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur. Kichik shaharlarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, ularni o'zgartirish bo'yicha maqsadli vazifalarni

shakllantirishga kompleks yondashishda iqtisodchi, me'mor, sotsiolog, ekolog va boshqa soha mutaxassislarining umumiy sa'y-harakatlarini birlashtirildi.

Muammoni o'rganish jarayonida tadqiqotchilar, olimlar tomonidan shaharning ijtimoiy rivojlanishi mohiyati va aniq tarixiy mazmunini ochib beradigan qoidalar ushbu hududdagi turarjoyning iqtisodiy va ijtimoiy rolini baholashga oid ma'lumotlarni tanqidiy o'rganish uchun nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda, bu aynan kichik shaharlar rivoji bevosita va bilvosita butun jamiyatning optimal ijtimoiy taraqqiyotining shartidir.

Pitirim Sorokin 1927-yilda sotsiologiya faniga sotsial mobillik nazariyasini kiritgan. U sotsial mobillikni turlari uning amalga oshirish jarayonlarini tahlil qilish bilan birga ushbu harakatning darajasini aniqlash bo'lganligidir. Entoni Giddens zamonaviy sotsiologik bilimlarni boyitishda o'zining munosib hissasini qo'shgan ingliz olimlaridan biri hisoblanadi. Uning sotsiologiyaga doir asarida shaharlarga alohida e'tibor qaratadi. "Unda an'anaviy shahar, hozirgi zamon urbanizmining xususiyatlari, zamonaviy shaharlarning rivojlanishi, shahar hayotining o'ziga xosligi, urbanistik ekologiya, urbanizm nazariyalari, urbanizm va ijtimoiy harakat, ichki shaharlarning tanazzuli masalalariga e'tibor qaratgan" [9].

Ikkinchi guruh sobiq ittifoq doirasida yozilgan monografiyalar, ilmiy tadqiqotlarda respublikaning turli hududlaridagi turli darajadagi shaharlar haqida umumiy tarixiy ma'lumotlar, mustabid sovet davlatining markazlashgan xalq xo'jaligi ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish nuqtai-nazardan ularning iqtisodiy va geografik jihatidan tutgan o'rni, demografik jarayonlari ko'rsatib berilgan. Biroq sobiq tuzumda sotsiologiya fan sifatida rivojlanmay balki, siyosiy manfaatga xizmat qiluvchi boshqaruv instrumenti sifatida qaraldi. Natijada, o'sha davr ishlarida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalaridagi muammolar haqida batafsil to'xtalib o'tilmagan, ya'ni mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlardagi asosiy e'tibor kichik shaharlarning joylashishi va tabiati haqida umumiy ma'lumotlar bilan cheklanib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar haqida so'z yuritilmagan.

Uchinchi guruhga mansub adabiyotlar asosan mamlakatimiz mustaqillik davrida chop etilgan bo'lib, mazkur adabiyotlarning ko'pchiligida katta hamda o'rta shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish bilan bog'liq masalalarga e'tibor berilgan. "Bu davrda olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarda O'zbekiston shaharlari ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholining turmush tarzi va ularning bandligini ta'minlash, mehnat unumdorligini oshirish bilan bog'liq sotsial jarayonlarni o'rganishning yangi nazariy asoslari yaratilgan. Bu tadqiqotlarda muayyan darajada kichik shaharlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi ahvoli, ulardagi urbanizatsiya va demografik jarayonlar, kichik va o'rta shaharlarning 1991–1992-yillardagi iqtisodiyoti ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish bilan bog'liq ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratilgan xolos" [10].

Shahar infratuzilmasini o'rganish jarayonida kichik shaharlar infratuzilmasini xam ko'rib tahlil qilamiz. Ijtimoiy rivojlanishining nazariy asosini tahlil qilgan holda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- 1) kichik shaharlarning yirik shaharlardan orqada qolishining oldini olishga qaratilgan zarur ijtimoiy dasturlar tizimini ilmiy jihatdan aniqlash, bunda aholining ijtimoiy rivojlanish jarayonini yanada optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish;
- 2) fuqarolarning psixofizologik holatiga shaharlar kengayishining barcha omillari ta'sirini tadqiq etish, tibbiy va biologik jihatdan zamonaviy shaharlarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga doir ijtimoiy muammolarini tahlil qilish;
- 3) ijtimoiy patologiyaning kichik shaharlarda namoyon bo'lishi, patologiya tuzilishi hamda mohiyatini o'rganish, ilmiy-amaliy jihatdan mazkur shahar aholisi sog'lig'ini saqlash muammolariga yechim topish;
- 4) kichik shaharlarni moliyaviy, sotsial-psixologik hamda diniy muammolarni har tomonlama o'rganish va tizim ish olib borishni talab qiladi.

Tahliliga ko'ra, shuni ta'kidlash mumkinki, zamonaviy jamiyatni yuksaltirishning muhim shartlaridan biri sifatida umumiy katta shaharlarning ajralmas ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tarkibida zamonaviy kichik shaharlar rivojini yanada takomillashtirish va shahar aholisining ijtimoiy

faolligini oshirish alohida e'tiborga loyiq. "Bunda integratsion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalarni ishlab chiqish orqali jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, uning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyati, aholining motivatsion va ehtiyojga yo'naltirilgan holda, hayot meyorlari va turmush tarzini hisobga olish talab etiladi. Chunki, har bir shahar aholisi hududiy nuqtai-nazardan yagona davlatning ijtimoiy tizimiga nisbatan muayyan subyektiv funksiyalarni bajaradi" [11].

Respublikada aholining katta qismi kichik shaharlarda yashagani bois ijtimoiy rivojlantirish muammolari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiy. Bularni chuqur o'rganmay o'sha shahar aholisi hayotini optimallashtirishga qaratilgan boshqaruv qarorlari o'z samarasini bermaydi.

Ijtimoiy sohaga doir kichik shaharlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali aholi turmush tarzini ko'tarish, ular uzun zarur shart sharoitlarni yaratish masalasi o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi. Ushbu bog'liqlik shaharlarda ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga kompleks yondashishni taqozo etadi. Bu inson hayotining ko'plab jihatlarini ilmiy asoslangan holda muvofiqlashtirishni talab qiladi. Yangi ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar sharoitida Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda aholi hayotining turli jihatlarini ilmiy prognozlash kichik shaharlardagi jarayonlardan oqilona foydalanish orqali amalga oshirilishi lozim.

Insonlarning turmush tarzi fenomeniga mazkur vositasiz hamda va o'zaro qaytar aloqa uzviy bog'liq. Shu kontekstda ijtimoiy munosabatlarning subyekt-obyekt holatidagi tizimida yuz beradigan o'zgarishlarning hammasi tabiat va jamiyat darajasida namoyon bo'ladi. Aynan shu sabab biz ushbu integral ko'rsatkichni umuman shahar ijtimoiy tizimini rivojlantirish mezonlari sifatida ajratib ko'rsatishga harakat qildik.

"Shaharning ma'lum bir hududiy birlashmasining rivojlanishi tarixiy jihatdan shakllanishi, ijtimoiy hayotning turli sohalarini o'zgartirish tendensiyalari va o'zaro qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi" [12].

Insonlarning turmush tarzi ehtiyojlari va qiymat-motivatsion munosabatlarga mos ravishda optimal ravishda o'zgartirish nihoyatda qiyin. Uning murakkabligi bir qator sabablarga bog'liq bo'lib, ular orasida bizningcha quyidagilar hisoblanadi:

Birinchidan, odamlarning turmush tarzini qurish, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri prognozlash mumkin emas. Bunda, doimiy ravishda yuz beradigan makon-vaqt o'zgarishlarni inobatga olib, ularni tuzatish va bashorat qilish qiyin. Bundan tashqari, turmush tarzining subyektiv determinanti inson hayotining stilistikasiga ma'lum bir modellashtirishni kiritadi. Bu esa turmush tarzidagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning tendensiyalarini tavsiflovchi taxminiy dinamik modellarni past darajada asoslanishi olib keladi. Binobarin, aholining turmush tarzi tarkibidagi ayrim xususiyatlarni shakllantirish bo'yicha xatti-harakatlar bilvosita turli yo'llar bilan amalga oshirilishi kerak. Xususan, ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash tizimini o'rganish orqali vositachilik nazorati trayektoriyalarini aniqlash mumkin.

Ikkinchidan, menejment subyektlari tomonidan turli ijtimoiy muammolarni hal qilishda hisobga olinadigan turmush tarzining integral ko'rsatkichlari – bu hayot darajasi va sifatini oshirish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bularning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi bashorat qilish qiyin bo'lib, turli ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bundan tashqari, hayot tarzida, subyektiv va obyektiv tomonlarning murakkab dialektik birligi va o'zaro ta'siri mavjud. Bunday munosabatlar har doim ham chiziqli deterministik tamoyillarga asoslanmaydi. Shu sabab, ustuvor ijtimoiy muammolarni aniqlashda muvozanatli ko'p o'zgaruvchan tahlil talab etiladi, uni amalga oshirish jiddiy uslubiy yordamni taqozo etadi. Va nihoyat, ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, turmush tarzining turli tarkibiy qismlarining o'zgarishini u yoki bu o'lchamdagi xususiyatlar zanjiridan chiziqli ravishda chiqarib bo'lmaydi.

Inson hayotining bir sohasidagi o'zgarishlar, ikkinchisida deformatsiyalar yoki islohotlarni keltirib chiqaradi. Natijada, butun turmush tarzini sifatli tuzatishga olib keladi. Odamlar turmush tarzining bunday yuqori darajada to'ldirilishi shahardagi jamiyatining ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal qilishda ilmiy asoslangan differensiallashtirilgan yondashuvni talab qiladi. "Aholining turmush tarzini o'rganish asosida shaharning yo'naltirilgan ijtimoiy rivojlanishini

amalga oshirish uchun ushbu ko'p qirrali va murakkab hodisaning mohiyati va yo'nalishi, ya'ni operatsion darajasi ma'lum sohalarga bo'linishi tabiiy. Chunki, bu jarayon turli xil ijtimoiy ko'rsatkichlar yordamida belgilanadi". Ma'lumki, shahar aholisi o'zi kabi boshqa jamoalar bilan tegishli munosabatlarda bo'lgan hamda davlatning ijtimoiy tizimiga nisbatan ma'lum subyektiv funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy-hududiy hamjamiyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi kichik shaharlar aholisi namoyon bo'ladi. Ushbu subyektiv faoliyat umuman odamlarning turmush tarzi xususiyatlarini belgilaydigan ma'lum bir ijtimoiy muhit doirasida amalga oshiriladi. Fikrimizcha, kichik shaharlarni integratsiya jarayonlarining rivojlanishini boshqarishda aniq belgilanishi kerak bo'lgan sotsial omil bilan bog'liq. Shaharlarida yashovchilarning jamoatchilik fikri prizmasi orqali inson muhitini iqtisodiy isloh qilish jarayonlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, ushbu islohotlarning global natijasi paradoksal vaziyat bo'lgan – iqtisodiy o'zgarishlar, uning asosini ommaviy xususiylashtirish paradigmasi bo'lishi, ya'ni ushbu jarayon aholining ishtirokisiz amalga oshirishda murakkab voqelikni namoyon etishi mumkin. Bunda, jamiyatda davlatning tuzilishini industrial tiklash amalga oshirilib, aslida, bir- birini o'zaro shartlanmagan faqat 2 ta guruh: hokimiyat va xususiy mulkka ega bo'lgan tadbirkorlar hamda kambag'allarning ulkan massasi tashkil etadi. Ushbu salbiy holatlar, shubhasiz, odamlarning yashash muhiti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, ularning turmush tarzida aks etadi. Bu yerda ijtimoiy muhit rivojlanishining obyektiv shartlari hayot subyektlari kutgan narsalarga mos kelmaydi. Boshqacha aytganda, aholining turmush darajasining pasayishiga olib kelgan ushbu muhitdagi halokatli o'zgarishlar haqiqatini ifodalaydi. Natijada, bir qator ijtimoiy guruhlar tashuvchilarining umumiy ijtimoiy salohiyati pasayishi va o'sha bu subyektlar ehtiyojining tuzilishini soddalashtirib, moslashuvchan qobiliyatlarini pasaytiradi va ularning kelajakka bo'lgan ishonchini butunlay barbod qiladi.

XULOSA

Mamlakat shaharlari aholisining turmush sharoitlari va faoliyatining rivojlanish xususiyatini belgilovchi obyektiv determinantlarning taqdim etilgan panoramasi hech qachon odamlarning turmush tarzi dialektikasini har tomonlama tahlil qilish uchun yetarli emasligini doimo hisobga olish zarur bo'ladi. Bizgacha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili natijalariga asosan shuni aytish mumkinki, real hayot tarzini shakllantirishning asosiy hal qiluvchi omil sifatida ijtimoiy ishonch darajasi va ijtimoiy himoya muhim rol o'ynaydi. Ammo, ular ijtimoiy muhitni rivojlantirish uchun ko'plab obyektiv sharoitlarga bog'liq. Bundan tashqari, shubhasiz, inson salomatligi holati, uning psixologik farovonligi darajasi, hayotiy yo'nalishlari va boshqa ko'p narsalar, iqtisodiy rivojlanishdagi obyektiv sharoit va hodisalar bilan belgilanadi. Shu sabab, «shaxs komponenti»ning hayot tarziga sezilarli ta'sirini hisobga olib, ushbu ko'rsatkichni inson hayotining butun mintaqaviy muhitini rivojlantirishning murakkab mezonlari sifatida ko'rib chiqiladi.

“Zamonaviy jamiyatning o'zgarish jarayonlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha chuqur farqlanishini namoyon etmoqda. Mintaqaviy ijtimoiy - iqtisodiy farqlar islohotlar strategiyasi uchun o'ta muhim bo'lib, ularning dastlabki davrda e'tiborga olinmasligi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy inqirozining chuqurligini xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlar yangi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, odamlarning ijtimoiy xulq-atvori, voqelikni idrok etish xususiyatlarini o'zgartirishni taqozo etadi. Natijada kichik shaharlarning rivojlanishi uchun ijtimoiy yangi usullarni joriy etish zarurligi belgilanadi” [13].

Bunday murakkab jarayonda kichik shaharlar ijtimoiy rivojlanishini diagnostika qilish va boshqarish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy boshqaruvning ijobiy tajribasi jamoalarda aynan hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari birlashadigan joyda, hokimiyat subyektlari va boshqaruv obyektlari uchun ijtimoiy sharoitlar saqlanib qolishi talab etiladi. Xulosa qilib aytganda, inson hayoti mohiyatini belgilaydigan asosiy determinantlar ishlab chiqilgan tuzilishi obyektiv omillar katta va kichik shaharning ijtimoiy muhiti rivojlanish ko'rsatkichlariga asoslanadi. Real hayot tarzi muayyan ijtimoiy makonning holati va uni rivojlanish tendensiyalarining tabiiy aksidir.

Mamlakatimizda shaharlarni ijtimoiy holati va infratuzilmalar faoliyatining samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va ilmiy tadqiqotlar orqali xulosa chiqarish va takliflarni ishlab chiqish hamda asoslash dolzarblik kasb etadi. Demak, shaharlarni rivojlanish tendensiyasi aynan infratuzilmalar faoliyatiga bog'liq.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Инфраструктура. <https://www.un.org/ru/youthink/infrastructure.shtml>.
2. Кузнецова А.И. Инфраструктура как необходимое условие устойчивого развития инновационной экономики города Вестник Московского университета имени С.Ю.Витте. Серия 1. Экономика и управление. 2012. №1. – С. 47.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 февралдаги 676-сонли “Ўзбекистон Республикасининг шаҳарсозлик кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қонуни; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. //Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ахборот-ҳуқуқий тизими, 2022 й. // lex.uz.
4. Кузнецова А.И. Инфраструктура как необходимое условие устойчивого развития инновационной экономики города Вестник Московского университета имени С. Ю. Витте. Серия 1. Экономика и управление. 2012. №1. – С. 47.
5. Кокурин Д.И., Назин К.Н. Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики. – М.: Транслит, 2011. – С. 54-55.
6. Сафронов Н.А. Экономика организации. – М.:Экономистъ, 2004. – 251 с.
7. Кокурин Д.И., Назин К.Н. Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики. – М.: Транслит, 2011. – С. 248-250.
8. Кокурин Д.И., Назин К.Н. Формирование и реализация инфраструктурного потенциала экономики России. – М.: Транслит, 2011. – С. 58.
9. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С. 295-424.
10. Ogers Brubaker, “Rethinking Classical Theory: The Sociological Vision of Pierre Bourdieu, Theory and Societ 14, no. 6 (1985): – P.745–75.
11. Малые города в социальном пространстве России: [монография] / [А.Ю.Ардальянова, П.В.Бизюков, Р.Г.Браславский и др.]; отв. ред. В.В.Маркин, М.Ф.Черныш; предисл. ак. М.К.Горшков. – М.: ФНИСЦ РАН, 2019.– С.545.
12. Qayumov Q.N. Kichik shaharlar infrastrukturasida ijtimoiy siyosatni rivojlantirishning ustuvor jihatlari, SamDU Ilmiy Axborotnomasi, 2021-yil, 2-son (126). – В.75-80.
13. Сухоцкий В.А. Управление социальной инфраструктурой в малых городах. «Крымский федеральный университет им. В.И. Вернадского». – Симферополь: Ариал, 2021. – С.22- 25.
14. Бижанова М.И., Магомедова П.И. К вопросу о трактовке понятия социальной инфраструктуры // ТДР. 2006. №12-1.
15. Энтони Гидденс. Социология. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Шарқ, 2022. – Б.848.
16. Саначин А.А. Трансформация социальной реальности малого российского города – автореф. дисс. соц. Санкт-Петербург, 2010.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000